

OSTEOPOROZ KASALLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15361368>

Alijonov Ziyodillo Rahmatullo o‘g‘li
Qo‘qon Universtit Andijon filiali davolash ishi
24.23 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Atakhanova Nilufar

ANNOTATSIYA

Maqolada osteoporoz suyak to‘qimasi kasalligi ekanligi, suyak to‘qimasida dekalsifikatsiya jarayoninig sodir bo‘lish mexanizmi bilan ta’riflanadi. Bu suyaklarning mo‘rtligiga olib kelishi, suyak to‘qimalarining metabolizmi buzilishi, katabolizmning suyak shakllanishi jarayonlaridan ustunligi, suyak kuchining pasayishi va sinish xavfining oshishiga olib keladi. Biz bu maqolada batafsil kassalikning kelib chiqishi sabablarini to‘liq yoritib berdik. Klinik shifokorlar, magistratura va klinik ordinatura talabalari, tibbiyot oliygohi talabalari foydalanishlari mumkin.

KALIT SO‘Z VA IBORALAR

Osteoporoz, idiopatik, postmenopauzal, yuvenil, senil, raxit, spazmofiliya.

Аннотация

В статье описано, что остеопороз – заболевание костной ткани, с механизмом процесса декальцинации в костной ткани. Это приводит к ломкости костей, нарушению метаболизма костной ткани, преобладанию катаболизма над процессами костеобразования, снижению прочности костей, повышению риска переломов. В этой статье мы подробно объяснили причины возникновения безналичности. Его могут использовать врачи-клиницисты, студенты магистратуры и клинической ординатуры, а также студенты медицинских вузов.

Ключевые слова и фразы

остеопороз, идиопатический, постменопаузаль ный, ювенильный, старческий, рахит, спазмофилия.

Annotation

In the article, it is described that osteoporosis is a disease of bone tissue, with the mechanism of the decalcification process in bone tissue. This leads to bone fragility, bone tissue metabolism disorders, catabolism predominance over bone formation processes, decreased bone strength, and increased risk of fractures. In

this article, we have explained in detail the reasons for the origin of cashlessness. It can be used by clinical doctors, master's and clinical residency students, and medical school students.

Key words and phrases

Osteoporosis, idiopathic, postmenopausal, juvenile, senile, rickets, spasmophilia

Osteoporoz – suyaklarning zichligi va mustahkamligining kamayishi bilan tavsiflanadigan surunkali kasallik bo'lib, u dunyo bo'yicha millionlab odamlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu kasallik suyak to'qimasining mo'rtlashuvi va siyraklashuvi natijasida suyaklarning osongina sinish xavfini oshiradi. Ayniqsa, keksa yoshdagi odamlar, xususan postmenopozal ayollar, osteoporozga moyil hisoblanadi. Hozirgi kunda osteoporozning oldini olish va samarali davolash muhim tibbiy va ijtimoiy masala hisoblanadi, chunki suyak sinishi natijasida bemorlarning hayot sifati sezilarli darajada yomonlashadi va hatto nogironlik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun osteoporozning sabablari, simptomlari, diagnostikasi va davolash usullarini chuqur o'rGANISH hozirgi tibbiyotda katta ahamiyatga ega. **Osteoporoz** suyak to'qimasi kasalligi bo'lib, kalsiy kamayib ketishi bilan ta'riflanadi, bu suyaklarning mo'rtligiga olib keladi. Asosiy belgilari:

- Suyak massasi va zichligining kamayishi.
- Suyaklar ingichka va mo'rt bo'lib qoladi, bu hatto kichik jarohatlar yoki yuklamalarda ham sinish xavfini oshiradi.
- Og'irliliklarni ko'tarish kabi harakatlarda sinishlar paydo bo'lishi mumkin.

Osteoporoz ko'pincha sinishdan oldin simptomsiz o'tadi. Ushbu kasallik sog'liqni saqlashning jiddiy muammosi bo'lib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra yuqumli bo'limgan kasalliklar orasida to'rtinchi o'rinni egallaydi. Kasallik rivojlanishining sababi chekish, spirtli ichimliklarni ortiqcha istemol qilish, metabolik kasalliklari, oshqozon ichak kasalliklari va boshqa omillarning uzoq muddatli ta'siri bo'lishi mumkin. Qariyalarda osteoporoz kaltsiy va ba'zi oziqa moddalarning yomon hazm bo'lishi tufayli rivojlanadi. Osteoporozning idiopatik shakli ham ajratiladi (asosan yoshlarda). Bu juda kam uchraydigan kasallik hisoblanib, uning sababi hozirda no'malum bo'lib qolmoqda. Idiopatik osteoporoz chaqaloqlarda, barcha gormonlarda normal bo'lgan bolalar va yoshlarda rivojlanishi mumkin.


Adabiyotlar tahlili

Osteoporoz kasalligi sohasida olib borilgan tadqiqotlar ko'plab ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan osteoporoz suyaklarning zichligi va sifatining pasayishi bilan bog'liq ekanligi va natijada suyak sinish xavfi oshishi ta'kidlangan (WHO, 2003). Ilmiy tadqiqotlar osteoporozning asosiy sabablarini yoshga bog'liq suyak massasi kamayishi, gormonal o'zgarishlar, ayniqsa estrogen darajasining pasayishi, vitamin D va kalsiy yetishmovchiligi hamda jismoniy faollikning kamayishi deb ko'rsatadi (Kanis, 1994; Riggs va Melton, 1995).

Bir qator tadqiqotlar osteoporoz diagnostikasida suyak zichligini o'lchashning ahamiyatini ta'kidlab, densitometriya usulining eng samarali diagnostika vositasi ekanligini ko'rsatdi (Genant et al., 1999). Shuningdek, suyak sinish xavfini kamaytirish uchun kalsiy va vitamin D qo'shimchalarining, jismoniy faollikning, shuningdek, bisfosfonatlar va boshqa farmakologik muolajalar samaradorligi bo'yicha ham ko'plab tadqiqotlar mavjud (Black va Rosen, 2016; Eastell va boshq., 2019).

Shuningdek, so'nggi yillarda osteoporozning oldini olishda sog'lom turmush tarzining roli, jumladan to'g'ri ovqatlanish va muntazam jismoniy mashqlar qilishning ahamiyati yanada kengroq o'r ganilmoqda (Michaëlsson et al., 2010). Bu tadqiqotlar osteoporozning kompleks davolash va oldini olish strategiyalarini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham osteoporoz bilan bog'liq epidemiologik va klinik tadqiqotlar olib borilmoqda, ammo bu sohada ilmiy adabiyotlar hali cheklangan bo'lib, mahalliy sharoitlar uchun mos davolash va profilaktika usullarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.



1-rasm. Osteoporoz.

Osteoporozning asosiy turlari:

Birlamchi osteoporoz:

- Idiopatik: Aniq sabablarsiz rivojlanadi.
- Postmenopauzal: Menopauzadan keyin estrogenlar tanqisligi tufayli paydo bo'ladi.
 - Yovenil: 20 yoshgacha bo'lgan o'smirlarda aniqlanadi.
 - Senil: Yosh o'zgarishi bilan bog'liq, asosan keksa odamlarda.

Ikkilamchi osteoporoz: Boshqa surunkali kasalliklar fonida yoki ma'lum doridarmonlarni uzoq vaqt qo'llash natijasida rivojlanadi, masalan:

- Gormonal buzilishlar (steroid osteoporoz, gipertireoz).
- Oshqozon ichak kasalliklari. □ Immobilizatsion osteoporoz.
- Yatrogen sabablar (kortikosteroidlarni uzoq vaqt qo'llash).
- Ovqatlanish buzilishi va alkogolizm.


1. Sekundar osteoporozi:

- Gormonal muvozanati: Gipertiroidizm, adrenal gormonal (masalan, Cushing sindromi) yoki testosteron yetishmovchiligi osteoporozga sabab bo'lishi mumkin.
- Dorilar: Uzoq muddatli kortikosteroidlar, antikonvulsantlar va antikoagulyantlar suyak zichligini kamaytirishi mumkin.
- Xronik kasalliklar (masalan: revmatoid artrit, oshqozon-ichak kasalliklari) osteoporoz kasalligi rivojlanishiga olib keladi.

2. Yoshlar osteoporozi:

- Yoshlarda va o'smirlar orasida ham osteoporoz ko'rinishi mumkin, bu asosan genetik omillar, ovqatlanish va jismoniy faoliyat bilan bog'liq havf omili deb hisoblash mumkin.

Osteoporoz



2-rasm.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, 21 yosh atrofida maksimal suyak zinchligimizga yetamiz. Suyaklar osteoporozi suyak massasining deminerallanishi va mo'rtligining ortishi bilan ta'riflanadigan jiddiy kasallikdir. Bu hatto minimal yuklamalarda ham sinish xavfining oshishiga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanadi va ko'pincha erta bosqichlarda aniq alomatlar bilan namoyon bo'lmaydi, bu esa uni tashxislashni qiyinlashtiradi. Osteoporoz yashirin kechishi va hayot sifatiga sezilarli ta'siri tufayli ba'zan "sukutli epidemiya" deb ataladi. Osteoparoz kasalligining belgilari asosan sekin rivojlanadi va ko'pincha daslabki belgilarda sezilmaydi. Biroq, kasallik rivojlanganida quydagi belgilar paydo bo'lishi mumkin:

- Suyaklarning qattiqlashishi: Suyaklar oson shikaslanadi.
- Og'riq: Bel va bo'yin og'rig'i.
- Qiyshiq pozitsiya: Qiyshiq orqa va pastki tananing o'zgarishi.
- Bo'yinning yirtilishi: Pastki suyaklar va bo'yin suyaklarining shikastlanishi.
- Suyaklar sinishi: Tabiiy hollarda yoki kichik zarbalarda suyaklarning sinishi.

Xulosa

Osteoporoz kasalligi bu ko'p tarqalganigan bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda ko'plab davo choralar mavjud va bu hollarda insonlar o'z salomatliklariga e'tiborli bo'lislighini va buning oldini olishlari tavsiya etiladi. Xulosa, qilib aytganda avvalo ovqatlanishimizga e'tiborli bo'lismiz kerak. Parxezlarni ham

meyorida qilish Ca li pereparatlarga nisbatan tabbiy ozuqalar, sabsavot, mevalarni meyorida istemol qilish tavsiya etiladi. Kalsiy preparatlariga boy bo'lgan mahsulotlar: brokoli, qovoq, ismaloq, bodiring, anor, apelsin, limon, yashil no'xat, kivi, don mahsulotlari va sut mahsulotlarida ko'proq. Lekin ko'p hollarda kalsiyli moddalarning ortiqcha miqdordagi istemoli buyrak va o'tda tosh paydo bo'lismiga olib keladi. Shunday ekan albatta har bir narsaning meyorida bo'lishi va shifokor maslahati bilan bo'lishi juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холов, X. A., Тешаев, О. Р., Бобошарипов, Ф. Г., Амонуллаев, А. X., & Надирова, Ю. И. (2023). ОСТРЫЙ ПАНКРЕАТИТ-КАК НЕРЕШЕННАЯ ПРОБЛЕМА МЕДИЦИНЫ. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 192-206.
2. Бобошарипов, Ф. Г., Холов, X. A., Тешаев, О. Р., Алимов, С. У., & Надирова, Ю. И. (2023). КОМОРБИДНОЕ ТЕЧЕНИЕ ОСТРОГО ХОЛЕЦИСТИТА У БОЛЬНЫХ COVID-19. *Models and methods in modern science*, 2(4), 51-58.
3. Umarova, Z. F., Tursunova, L. D., Maksudova, M. X., Xodjanova, S. I., Mirzayeva, G. P., & Nadirova, Y. I. (2023). DIASTOLIC DYSFUNCTION IN PATIENTS WITH CORONARY ARTERY DISEASE LATE AFTER CORONARY STENTING (Doctoral dissertation). In *International scientific-online conference International scientific-online conference*.
4. Mirzayeva, G. P., Jabbarov, O. O., Umarova, Z. F., Qodirova Sh, I., Tursunova, L. D., Nadirova Yu, I., & Rahmatov, A. M. (2023). Assessment of Efficacy and Optimization of Antiplatelet Therapy in Patients with Ischemic Heart Disease.
5. Бобошарипов, Ф. Г., Холов, X. A., Тешаев, О. Р., Алимов, С. У., & Надирова, Ю. И. (2023, March). ОСЛОЖНЕНИЕ ОСТРОГО ХОЛЕЦИСТИТА У БОЛЬНЫХ ПЕРЕНЯВШИСЬ COVID-19.